




ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI TALAFFUZ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raximova Xurshidaxon Sodiqovna

QDPI defektologiya kafedrası katta o'qituvchisi
defektologiya yo'nalishi

3 – bosqich talabasi Turg'unova Gulshanoy

Har bir ishda ma'lum bir texnologiyalarga asoslangan holda ish olib boriladi. Bu o'sha ishni mukammal va sifatli bo'lishiga ko'mak beradi. Hozirda har bir sohaning o'z texnologiyasi bor.

Shu o'rinda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish juda yaxshi samara berishi ko'zda tutilgan. Innovatsion texnologiyaning qay darajada foyda berishi esa uni puhta tuzilganligiga bog'liqdir.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyulda "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qarorida "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida" gi nizomda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiylash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlash, jamiyatda moslashuviga ko'maklashish talablari qo'yilganligi esga tushadi. Bundan ko'rinib turibdiki eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi va tarbiyalanishi maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanishi alohida ahamiyatga ega.

Yurtimizda hozirgi kunlarda innovatsion texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ham innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim joriy etish bo'yicha juda ko'p ishlarni amalga oshirish, ular uchun turli xil dasturlar yaratish, AKTlar asosida mashg'ulotlar o'tish, zamon talabalariga mos mashg'ulotlar ishlanmalarini yaratish kerak.

Shu o'rinda prezidentimizning bildirgan fikrlari esga tushadi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi soxada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", ¹ degan edilar.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent, "O'zbekiston". 2017. 14-bet.

Shuning uchun ham barcha imkoniyatlarni biz ham qo'llashimiz kerak. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirishimiz, ularni samaradorligi va shaffofligini taminlashga harakat qilishimiz o'ta muhimdir.

Masalan, turli dasturlar o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Dasturli o'yinlarda videoprojektorlardan foydalaniladi. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'z boyligi sust bo'lsa, turli dastur ishlanmalari juda muhimdir.

Biz bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish kasbiy mahorat asoslarini shakllantirishning zaruriy elementidir. Kasb-hunar ta'limi sohasida ishlasak ham innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini yaxshilashga harakat qilishimiz zarur. Shuning uchun ham biz kar va zaif eshituvchilarga ko'proq innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib dars o'tishimiz zarurdir.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar muhim ro'l o'ynaydi va o'qituvchining o'quvchilar va talabalar bilan o'zaro bog'liqligini taminlaydi. Ta'lim samarasini ham oshirishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni eshitish va idrokini rivojlantirishga ham turtki bo'ladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi-insonni doimiy o'zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlashdir. Ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish masofaviy o'qitish texnologiyalariga asoslanadi. Nogironligi bor bolalar va nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda raqamli ta'lim manbalaridan foydalanish sinfda va masofadan turib ishlash uchun juda muhimdir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularda talaffuz malakasini oshirishda ham albatta innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishimiz zarur. Chunki talaffuz malakalarini rivojlantirish va oshirish uchun yangi-yangi usullar, yo'llar o'ylab chiqishimiz, alohida ahamiyatga egadir. Shu o'rinda ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni ham bilishimiz, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga etkazib beraolishimiz ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga o'quv ma'lumotlarini taqdim etish uchun qulayliklar yaratish uchun ta'limga innovatsion texnologiyalarni kiritishimiz kerak. Biz eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishimizni yana bir sababi, ularni biror bir kasb-hunarga qiziqtirish va yaxshiroq egallashlarini biroz bo'lsada engillashtirishdir.

Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda o'quv faoliyatining innovatsion faoliyati quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratiladi:

- hech qanday cheklovlarisiz to'laonli ta'lim olish uchun sharoit yaratish;
- muassasalarning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash orqali ta'lim muassasasida zarur adaptiv muhitni yaratish;
- inklyuziv yondashuvlar asosida individual ta'limni ta'minlash;
- har xil o'zgaruvchan sharoitlarda ta'lim olish uchun sharoit yaratish.

O'qituvchi yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ko'proq kichik guruhlarda ish olib borishi talab qilinadi. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularni kichik-kichik guruhlariga bo'lib qo'yish yaxshi natija beradi. Bunda o'qituvchining kichik guruhlarini shakllantirish, boshqarish, baholash ko'nikmalari talab etiladi va o'qituvchidan umumiy guruh va kichik guruhlardagi muhitni his qilish, tashkilotchilik qobiliyatlari talab qilinadi.

Qator tadqiqotlar zaif eshituvchi bolalar talaffuzga o'rgatish xususiyatlari hamda bunday o'ziga xoslikka mos kelmaydigan mavjud o'qitish jarayonini taqqoslash natijasida tilni mahsus o'qitish muammolarini ilmiy jihatdan hal etilishi: uni psixologik, lingvistik, psixo-lingvistik, umumdidaktik hamda metodik nuqtai nazaridan ishlab chiqilishiga asos bo'lib, xizmat qiladi, deya ko'rsatadi.

Shu o'rinda ushbu jarayonda turli xil yangiliklarni qo'llashimiz ham foyda beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzni shakllantirish uchun yuqoridagi ishlarga alohida e'tibor qaratishimiz zarurdir. Talaffuz malakalarini esa innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali yanada rivojlantirishimiz mumkin. Buning uchun ta'lim berishda yangi metodlardan, usullardan ham foydalanishimiz, zarur bo'lsa shunday innovatsion ta'lim texnologiyalarini yaratishimiz zarurdir.

Bola hayotida talaffuzni yaxshi rivojlanishini oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaga uzviy bog'liqdir. Bolalarni talaffuzga o'rgatish jarayoni nutq o'stirish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, atrofdagilarga tushunarli bo'lgan talaffuzni shakllantirish, hamda muloqatda og'zaki nutqdan foydalanish ehtiyojini tarbiyalash nazarda tutiladi. Bolalarda ya'ni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzni shakllantirish uchun ulardagi eshitish sezgisini rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayon ham o'z o'zidan ta'limdagi innovatsion texnologiyalarga ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun albatta qilinadigan nazariy va amaliy ishlardan tashqari innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishimiz, ularni ta'limda qo'llay olishimiz muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Р.М.Боскис., К.Г.Коровин., В.А.Синяк. "Формирование грамматического строя языка у тугоухих учащихся." М.: Просвещение, 1995
2. Корсунская. Б.Д. Воспитание Глухого дошкольника в семье-М.: Просвещение, 1990.-19с
3. Леонгард. Э.И. и дру Я не хочу молчат!-М.: Просвещение, 1990.
4. Қодирова. Ф.У бошланғич синф кар ва заиф эшитувчи ўқувчилар нутқини шакллантириш.: Пед.фан номзоди. дис. Аутореф...-Тошкент: ТДПУ: 2006.-20-бет